





1-dars. O'rganilganlarni takrorlash



1. Rasmlarda tasvirlangan **sonlarni** ayting.



2. Sonlarni o'qing. Ularni **xona qo'shiluvchilari yig'indisi** ko'rinishida ifodalang. Har bir sonda nechta to'liq **birluk**, **o'nlik**, **yuzlik** va **minglik** borligini ayting.

52 647

23 007

4 058

17 849

9 807

78 945



3. Arifmetik amallar **komponentlarini** ayting. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

$$4\,245 - 2\,899$$

$$2\,736 + 9\,205$$

$$123 \cdot 5$$

$$548 \cdot 6$$

$$7\,275 : 5$$

$$8\,883 : 7$$



4. **Noma'lum** sonni toping.

$$\boxed{*} + 125 = 200$$

$$45 : \boxed{*} = 15$$

$$\boxed{*} \cdot 27 = 81$$

$$\boxed{*} : 5 = 250$$

$$620 : \boxed{*} = 62$$

$$17 \cdot \boxed{*} = 170$$



5. Maktab bog'iga har bir qatorga 15 tadan qilib, 6 qator daraxt ekildi. Shundan so'ng ekiladigan yana 134 ta daraxt qoldi. Jami nechta daraxt ekilishi kerak edi?



134 ta daraxt

$\boxed{?}$ ta d.



6. Tenglamalarni yeching.

a) $645 - y = 225 \cdot 2$

b) $y - 426 = 545 : 5$



7. **To'rt xonali** son yozuvida 6 ta yuzlik bor. Birliklar soni yuzliklar sonidan 3 marta kam. O'nliklar soni esa birliklar va yuzliklar sonining yig'indisiga teng. Agar bu sonda 5 ta to'liq minglik bo'lsa, bu qanday son?



8. Tenglamalarni yeching.

a) $183 + y = 250 \cdot 2$

b) $9\,235 - y = 1\,903 - 56$

9. Akmal har biri 45 000 so'mdan 5 ta kitob va har biri 65 000 so'mdan 3 ta bloknot sotib oldi. U xarid uchun necha so'm to'ladi?

	narxi (a)	soni (n)	qiymati (C)
kitoblar	45 000 so'm	5 ta	? so'm
bloknotlar	65 000 so'm	3 ta	? so'm

$\boxed{?}$ so'm

